3-ŞÖBA · BIOTEXNOLOGIYA VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

OROLBÖYI MINTAQASIDA ÇÖLLANIŞ JARAYONLARINING OLDINI OLIŞDA YAYLOVLARDAN OQILONA FOYDALANIŞ VA SUN'IY YAYLOVLARNI TAŞKIL ETIŞNING AHAMIYATI

K.M. Atanazarov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311115

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
543–545

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Atanazarov K.M. Orolböyi mintaqasida çöllaniş jarayonlarining oldini olişda yaylovlardan oqilona foydalaniş va sun'iy yaylovlarni taşkil etişning ahamiyati // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 543–545. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311115

ANNOTATSIYA Maqolada Orolböyi mintaqasida kuzatilayotgan çöllaniş va yerlar degradatsiyasining asosiy sabablari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari atrofliça tahlil qilingan. Tabiiy yaylovlardan oqilona foydalaniş, me'yoriy çorva mollarini boqiş tizimini joriy etiş, sun'iy yaylovlarni barpo etiş va yem-xaşak bazasini mustahkamlaş böyiça ilmiy hamda amaliy takliflar keltirilgan. Şuningdek, mazkur çora-tadbirlarning mintaqa ecologic barqarorligi va çorvaçilik sohasi rivojlanişidagi ahamiyati atrofliça yoritilgan.

KALIT SÖZLAR Orolböyi, çöllaniş, yer degradatsiyasi, yaylov, sun'iy yaylov, çorvaçilik, ekologik barqarorlik, tabiiy resurslar, ozuqa bazasi.

KIRIŞ

Bugungi kunda global ekologik muammolar orasida çöllaniş va yerlar degradatsiyasi alohida örin tutadi. Ayniqsa, Orol dengizining qurişi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz Orolböyi hududlarida tabiiy ekotizimlarning izdan çiqişiga, tuproq unumdorligining sezilarli pasayişiga va tabiiy yaylovlar holatining keskin yomonlaşuviga sabab bölmoqda. Bu jarayonlar agrosanoat majmuasi va qişloq xöjaligining yetakçi tarmoqlaridan biri bölgan çorvaçilikning barqaror rivojlanişiga salbiy ta'sir körsatmoqda.

Orolböyi mintaqasining arid va subarid iqlim şaroiti ösimliklar qoplamining qayta tiklanişini sekinlaştiradi. Aholi sonining ortişi va çorva mollari boş sonining köpayişi tabiiy yaylov resurslariga bölgan bosimni bir neça barobar oşirdi [1,3]. Şu sababli, degradatsiya jarayonlarining oldini oliş, yaylovlardan oqilona foydalaniş va zamonaviy sun'iy yaylovlarni barpo etiş ustuvor ilmiy va amaliy vazifalardan biridir.

Materiallar va tahlil. Yaylovlar degradatsiyasining asosiy sabablaridan biri çorva mollarining me'yordan ortiq va rejasiz boqilişi (antropogen omil) hisoblanadi. Uzoq yillar davomida yaylov resurslaridan rejasiz, mavsumiy almaşlab boqiş qoidalariga rioya qilmagan

holda foydalaniş natijasida köp yillik ozuqabop ösimliklar turi siyraklaşib, örnini zararli va çorva yemaydigan ösimliklar egalladi. Bu esa şamol eroziyasi va tuproq deflyatsiyasining kuçayişiga olib keldi.

Orolböyi mintaqasida yerlarning katta qismi turli darajada çöllaniş va ikkilamçi şörlaniş jarayonlariga uçragan. Uşbu salbiy jarayonlar quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlarni keltirib çiqarmoqda: Jumladan:

1. Tabiiy ozuqa bazasining qisqarişi: Yaylovlar hosildorligining 2–4 baravarga kamayişi;
2. Mahsuldorlikning pasayişi: Çorva mollari tirik vazni va mahsulot beriş körsatkiçlarining yomonlaşuvi;
3. Daromadlar kamayişi: Qişloq aholisi va fermer xöjaliklari moliyaviy barqarorligining zaiflaşuvi;
4. Aholi migratsiyasi: Ekologik muhit yomonlaşuvi tufayli mehnat migratsiyasining ortişi.

Mavjud muammoni hal etişning ikki asosiy strategik yönalişi mavjud bu asosan tabiiy tiklaniş va sun'iy yaylovlar barpo etişdir. Ya'niy degradatsiyaga uçragan yaylovlarni muhofaza qiliş va çorva boqişni vaqtinça töxtatiş. Tabiiy tiklaniş iqtisodiy jihatdan kam xarajat talab qilsa-da, Orolböyining keskin kontinental va quruq iqlim şaroitida bu jarayon önlab yillarni talab etişi mumkin.

Sun'iy yaylovlar barpo etiş asosida faol fitomelioratsiya olib boriladi, bunda yuqori mahsuldorlikka va qurğoqçilikka çidamli bölgan fitomeliorant ösimliklarni ekiş orqali sun'iy yaylovlar taşkil etiladi. Bu qisqa muddatda yuqori ekologik va iqtisodiy samara beradigan istiqbolli yeçimdir.

Sun'iy yaylovlarni taşkil etiş va ularning ahamiyati sun'iy ekiladigan yaylovlarni taşkil etiş agroekotizimni barqarorlaştirişda kompleks ustunliklarni ta'minlaydi. Tabiiy yaylovlarga tuşadigan antropogen bosimni kamaytiradi. Çorvaçilik uçun mustahkam va barqaror yem-xaşak bazasini şakllantiradi. Kuçli degradatsiyalangan va şörlangan yerlarni fitomelioratsiya orqali qayta tiklaydi. Tuproqning şamol va suv eroziyasiga çidamliligini oşirib, çöllaniş sur'atini sezilarli darajada pasaytiradi. Fermer va dehqon xöjaliklarining çorvaçilikdan oladigan iqtisodiy samaradorligini oşiradi. Qişloq aholisini iş bilan ta'minlaş va ularning daromad darajasini oşirişga xizmat qiladi.

Sun'iy yaylovlarni barpo etişda quyidagi kompleks tadbirlarni amalga oşiriş talab etiladi:

1. Ilmiy asoslangan tizimni joriy etiş: Çorva boqiş yuklamasi va mavsumiy navbatlab boqiş normalarini işlab çiqiş.
2. Fitomeliorantlarni töğri tanlaş: Orolböyining şörlangan va qurğoqçil tuproqlariga mos (saksaul, izen, teresken, çerkez va b.) köp yillik ösimlik uruğlaridan foydalaniş [2].
3. Suv ta'minotini yaxşilaş: Yaylovlarda şaxtali va artezian quduqlarini tiklaş hamda suv içiş şoxobçalarini barpo etiş.
4. Malaka oşiriş: Fermerlar va mahalliy aholining yaylov resurslaridan foydalaniş böyiça bilim va könikmalarini muntazam oşirib boriş.

KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA MUHOKAMA

Taklif etilayotgan fitomeliorativ va taşkiliy-iqtisodiy çora-tadbirlarni amalga oşiriş natijasida quyidagi ijobiy körsatkiçlarga erişiş imkonini beradi. Tabiiy yaylovlarning hosildorligi va ösimlik qoplami ziçligi 30–40% ga ortadi [4]. Degradatsiyaga uçragan va yaroqsiz holga kelib qolgan yer maydonlari qisqaradi. Çorvaçilik yönalişidagi fermer

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311115

xöjaliklarida sifatli ozuqa birligi köpayib, göşt va sut mahsulotlari işlab çiqariş hajmi kengayadi. Mintaqada ekologik muvozanat va tuproq muhofazasi barqarorlaşadi. Qişloq aholisining turmuş darajasi yaxşilanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniş ta'minlanadi.

Xulosa örnida qillib, Orolböyi mintaqasida kuçayayotgan çöllaniş jarayonlarining oldini oliş va tabiiy ekotizimlarni saqlab qolişda yaylovlardan oqilona va ilmiy asoslangan tarzda foydalaniş ustuvor vazifadir.

Sun'iy yaylovlarni taşkil etiş, çorva boqiş yuklamasini tartibga soliş, suv ta'minoti infratuzilmasini tiklaş va mahalliy işlab çiqaruvçilarning ekologik bilimlarini oşiriş atrof-muhit muhofazasini ta'minlaş bilan bir qatorda çorvaçilik tarmoğining raqobatbardoşligini oşiradi.

Uşbu maqsadlarga erişiş uçun davlat idoralari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim maskanlari va mahalliy fermer xöjaliklarining özaro klasterli hamkorligini yanada kuçaytiriş maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Бахиев А.Б. Экология и охрана растительного покрова Каракалпакии. – Ташкент: Фан, 1985. – 120 с.
2. Шамсутдинов З.Щ. Физиолого-экологические основы интродукции и селекции аридных кормовых растений. – М.: Колос, 2003. – 280 с.
3. Rafikov A.A. Orol va uning atrofidagi ekologik muammolar. – Toşkent: Özbekiston, 1990. – 112 b.
4. Закиров П.К. Ботаническая география низменных пустынь Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1971. – 198 с.